

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI JIHATLARI

Abduraxmonova Muqaddam

Quvasoy shahar 17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi, O'zbekiston, Quvasoy shahar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7927097>

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich ta'limga ta'limda texnologiyasidan foydalanish natijasida o'quv maqsadlarini loyihalash, didaktik materiallarni yaratish, o'qitish jarayonini tashkil etish va samarali o'zlashtirilishiga erishish natijalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: ta'limga, ta'limga texnologiyalari, innovatsiya, ta'limga samaradorligi, boshlang'ich ta'limga.

EFFECTIVE ASPECTS OF USING EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION

Abstract: this article explores the results of the design of educational goals, the creation of didactic materials, the organization of the teaching process and the achievement of effective assimilation as a result of the use of vacation technology in primary education.

Keywords: education, educational technology, innovation, educational efficiency, primary education.

ЭФФЕКТИВНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье исследованы результаты проектирования целей обучения, создания дидактического материала, организации и эффективного освоения учебного процесса в результате использования образовательной технологии в начальном образовании.

Ключевые слова: образование, образовательные технологии, инновации, эффективность обучения, начальное образование.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" dagi yetakchi vazifalardan biri ta'limga tarbiyani ko'tarish, ta'limga mazmunini yangilash, yosh avlodning aqliy-intellektual taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltirilgan uzlusiz ta'limga tarbiyaning yangi modelini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlangan holda muntazam takomillashtirib borishdan iboratdir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" samaradorkigini oshirishda uzlusiz ta'limga tizimini pedagogik hamda axborot texnologiyalari bilan ta'minlashga erishish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon 1-4 sinflar orasidagi uzviylikni ta'minlash bilan bog'liq. Bugungi kunda ta'limga jarayonida keng qo'llianiayotgan axborot texnologiyalari o'quv jarayonini harakatlantiruvchi kuch yoki oldindan belgilab qo'yilgan aniq maqsad yo'lida o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limga yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasidir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYA

Ta'limga muassasalarini oldida turgan vazifalarni hal etish mashg'ulot (ta'limga jarayoni) mazmuni, ta'limga shakli, metodlari hamda vositalarining samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Ta'limga shakli, metodlari va vositalari o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda chuqur bilim va dunyoqarashni hosil qilishga xizmat qiladi. "Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi, bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqat o'qituvchini boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. O'qituvchi

shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o‘zi o‘qitayotgan predmetlarni chuqrubilishi, uning metodikasini o‘zlashtirib olgan bo‘lishi zarur”[1].

Ta’lim maqsadlari – diagnostik, o‘qish-o‘qitish qayta ishlab chiqiladigan – takrorlanadigan bo‘lishi uchun har bir maqsad erishiladigan bo‘lishi lozim, ya’ni ta’lim maqsadi shunday ifodalanishi lozimki, unga erishilgani haqida aynan bir xil hukm chiqarish mumkin bo‘lsin. O‘quvchini o‘rganish natijasini anglaydigan vazifalar oydinlashtirilgan o‘quv maqsadlari deyiladi. Oydinlashtirilgan maqsadlar o‘quvchining kuzatish, o‘lchash mumkin bo‘lgan harakatlarini nazarda tutadi.

Har qanday nazariyaga xos bo‘lgani kabi yuqoridagi tizim ham qonuniy ikki yo‘nalishni ifodalaydi va hal qiladi: didaktik (tarbiyaviy) masalalar va bu masalalarni amalga oshirish yo‘llari. Shartli ravishda didaktik (tarbiyaviy) masalalarga maqsad, mazmun kiritilsa, amalga oshirish yo‘llariga shakl, vosita, uslublarini kiritish mumkin.

G.K.Selevko tomonidan pedagogik texnologiyalarning 12 turi farqlanib tasnif qilingan. Texnologiyalarning “Mazmuni va tuzilishi xarakteri”ga qarab, belgilangan turi ichidan “Ta’lim texnologiyalari”ni ajratib olamiz. Ta’lim texnologiyalari haqida fikr yuritiqdida didaktik jarayon tuzilmasi haqida tushunchaga ega bo‘lish kerak. Pedagogik, psixologik va uslubiy adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, didaktik jarayon o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha tarkiblarni o‘z ichiga oladi: o‘quvchi (talaba), o‘qituvchi (pedagog); davlat buyurtmasiga mos keluvchi ta’limning maqsadi, mazmuni; o‘qitishning tashkiliy shakli; uslubiy jihatlari; o‘quvchi (talaba)ning ta’limiy-motivatsion holati; o‘quvchi (talaba)ning o‘quv-bilish faoliyati va uni o‘quituvchi(pedagog) tomonidan boshqarish.

Ta’lim texnologiyasining odatdagisi o‘qitish usullaridan tubdan farq qiluvchi va uning dastlabki muhim jihatlaridan hisoblangan yuqoridagi birinchi holatda aytilgan tizim – pedagogik maqsadlar taksonomiysi deb yuritiladi. Maktablarda boshlang‘ich ta’lim pedagog-o‘qituvchilaridan pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarining qo‘llanishi masalasi dolzarb ahamiyatga ega, chunki ta’lim muassasasining ishiga pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi – muktab ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning eng muhim shartidir.

“Ta’limni texnologiyalashtirish bilan bog‘liq omillar rus olimi S.G.Shalovalenko tomonidan quyidagicha belgilanadi:

- texnikani bilish va mukammal egallash;
- audiovizual fond bilan tanish bo‘lish;
- texnika vositalaridan foydalanish metodikasini egallash”[2].

Ta’lim jarayoni bir nechta shartlarga muvofiq tashkil etiladi.

Ular quyidagilardir:

- 1) ta’lim olish, muayyan nazariy hamda amaliy bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ijtimoiy (yoki shaxsiy) ehtiyojlarning yuzaga kelishi;
- 2) ta’lim olish, muayyan nazariy hamda amaliy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan rag’batning uyg’onishi;
- 3) o‘quvchining o‘quv-bilish faoliyati mazmunini belgilash;
- 4) o‘quvchining o‘quv-bilish faoliyatini boshqarishni yo‘lga qo‘yish omillarining mavjudligi.

Shunday qilib ta’lim jarayoniga interfaol usullarni qo‘llashda o‘quvchi ta’lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo‘lib, bunda boshqaruv maqsadi ta’limning ob’yekti va sub’yekti sifatida o‘quvchiga yo‘naltiriladi. Demak, ta’lim texnologiyasi ta’lim mazmuni usul,

shakl va vositalar asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltiriladi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Ta'lim texnologiyasining funktsional tuzilmasi bevosita ta'lim jarayonining mohiyatini to'laqonli yoritishga xizmat qiladi. Ya'ni, ushbu tuzilma o'zida ta'lim jarayonining umumiy ko'rinishi (tashkiliy shakli va ichki mohiyati), obrazini ifoda etadi.

Ta'lim jarayonida har bir mavzu bo'yicha o'quvchilar an'anaviy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlariga e'tibor beriladi. Bunda o'quvchilar olgan bilimlari asosida mantiqiy fikrlay olishlari, bilimlarini oldingi mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lay olishlari, tayanch ko'nikmaga ega bo'lishlar, globus va xaritadan ko'rsatish ko'nikmasini egallashlari, o'lchash va tajribalar o'tkazish malakasiga ega bo'lishlar, olgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olishlariga e'tibor qaratiladi.

Ta'lim texnologiyasining funktsional tuzilmasini tasvir orqali quyidagicha aks ettirishga harakat qildik. Ijtimoiy raqobat mavjud bo'lgan sharoitda mo'tadil faoliyat yurtish, raqobatga nisbatan ishchanlik immunitetini hosil qilish manfaatlar to'qnashuvida «omon» qolish, yuqori mavqeiga ega bo'lish uchun imkoniyat yaratadi. Shu bois o'quvchilarda ta'lim olish, nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli yondashuv hissi qaror topmoqda.

Bu esa ularda ta'lim olishga bo'lgan rag'batni hosil qilmoqda. Endilikda ta'lim olish, muayyan kasb-hunar yoki mutaxassislik ma'lumotlarini egallash, bu borada ma'lum ko'nikma va malakalarni shakllantirish hayotiy ehtiyojga aylanmoqda. Ta'lim olishga bo'lgan rag'bat va uning mazmuni ta'lim jarayonining muvaffaqiyatining garovi, kafolati bo'la oladi.

Endilikda o'quvchi o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborot (bilim)larni qabul qilmaydi. Balki ta'lim beruvchining yo'llanmasi, ko'rsatmasiga muvofiq tavsiya etilgan o'quv manbalari bilan mustaqil ravishda tanishish orqali nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, o'qituvchining nazorati ostida amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qiladi. O'quvchi mustaqil faoliyat yuritish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish asosida o'zida fikrni ilgari surish, dalillar keltirish, o'z fikrini himoya qilish layoqatini tarbiyalay olishi, o'z-o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini baholash sifatlarini qaror toptira olishi talab etiladi. Davr talabi o'quvchini ta'lim jarayonining sust tinglovchisi bo'lishdan faol ishtirokchisiga aylantirishni taqozo etmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim texnologiyasining samarali jihat – ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlaydi.

O'quvchining faoliyat mazmunini to'laqonli yoritilishida ta'lim shakli, metod va vositalarining ahamiyati katta. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi tinglovchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u tinglovchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

1. Adabiyotlar:

1. R.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. Pedagogika. Darslik. T.:, 2018 yil, 40-bet.
2. N.Boymurodov. Amaliy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2008 yil, 275-bet
3. Каримова, Г. Й. (2021). MORALITY AS AN IDEOLOGICAL METHOD OF FIGHTING SPIRITUAL THREATS. Экономика и социум, (6-1), 707-710.
4. Karimova, G. (2022). CORRUPTION: ITS HISTORICAL ROOTS AND WAYS TO COMBAT IT. *Research Focus*, 1(4), 267-272.

5. Каримова, Г. (2022). МАЪННАВИЯТ ВА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ. *Экономика и социум*, (3-2 (94)), 612-615.
6. Qurbanov, P., Ataxonov, S., & Sharofiddinov, S. (2022). MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING USLUBIY ASOSLARI. *Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, 2(13), 43-47.
7. Saidolimovna, Z. D. (2019). THE FORMATION OF INTERETHNIC COMMUNICATION CULTURE OF THE YOUTH: METHODOLOGICAL ANALYSIS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
8. Закирова, Д. (2021). Millatlararo umumbashariy manfaatlar va qadriyatlar. *Общество и инновации*, 2(10/S), 227-233.
9. Zakirova, D. S. (2022). TALABALARDA MILLATLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 439-448.
10. Абдулазизова, Н. А., & Закирова, Д. С. (2016). МАСОФАЛИ ЎҚИТИШНИНГ УЗЛИКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ АХАМИЯТИ. *Ученый XXI века*, 42.
11. Pulatova, N. (2018). PROSPECTS DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM. *Экономика и социум*, (10 (53)), 65-67.
12. Pulatova, N., & Xasanov, N. (2020). THE ROLE OF ENVIRONMENTAL EDUCATION IN MODERN EDUCATION. *Мировая наука*, (6 (39)), 60-62.
13. Pulatova, N. (2021). MODERN PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR THE FORMATION OF ETHNECOLOGICAL CULTURE IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(05), 108-113.
14. Zakirova, D., & Nishanova, S. (2022). Legal basis for the development of the idea of interethnic harmony and religious tolerance in Uzbekistan. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(6), 125-129.
15. Umatkulov, T. (2023). The Importance of the "Five Important Initiatives" in the Development of Society and the Formation of Civic Positioning Among Young People. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 51-55.